

AVESTOVIY TEONIMLAR

Raximova Norjongul Mahsud qizi

UrDU magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Avesto” asaridagi teonimlarning lisoniy-ma’noviy xususiyatlariga e’tibor qaratiladi, shu jumladan, asardagi teonim va mifonimlarning farqlanish jihatlari yuzasidan fikrlar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: *Avesto, teonim, mifonim, iloh, Xudo, Tangri, dev.*

Annotation: In this article, attention was paid to the linguistic and spiritual characteristics of theonyms in the Avesta, including the views on the differences between theonyms and mythonyms in the work.

Key words: *Avesta, theonym, myth, deity, god, giant.*

Markaziy Osiyo, Eron xalqlarining qadimgi davridagi tili, dini, urf-odatlarini, madaniyat darajasi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti haqida ma’lumotlar beruvchi bebaho asar “Avesto” hisoblanadi. “Avesto” asarida hayotning turli sohalariga oid bilimlar o‘z ifodasini topgan. Bu asarni tadqiq qilish tilshunoslik ilmi uchun ham katta ahamiyatga ega⁹³. Asar yuzasidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilganiga qaramay, “Avesto”ning haligacha fanda tadqiq qilinmagan jihatlari anchagina.

Tilimizning teonimlar deb ataluvchi leksik birliklari “Avesto” kitobida ham o‘z ifodasini topgan. **“Teonim”** (yunoncha **teog – xudo (Olloh) + onoma – atoqli ot**) – Ollohning nomi va atributlarining atoqli oti degan ma’noni bildiradi⁹⁴. Bugungi o‘zbek tilshunosligi oldida turgan masalalardan biri, “Avesto” asaridagi teonimlarni umumlashtirish, Avesto teonimlari so‘zligini tuzish, iloh nomlarining mifonim bilan chegarasini belgilash hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida teonimlar chuqur va mukammal o‘rganilmagan, o‘z tadqiqini kutayotgan masalalardan biri sanaladi⁹⁵. Xususan, Shuhrat Abdullayev ““Avesto”ning o‘zbekcha tarjimalari: muammo va mulohazalar” nomli maqolasida o‘zbek avestoshunosligida olimlar e’tiboridan chetda qolgan mavzu bu qadimgi ajdodlarimiz sig‘ingan xudolar, ekanligini ta’kidlaydi. Tillayeva Muyassar o‘zining “Xorazm onomastikasining shakllanishi va “Avesto” dissertatsiyasida, “Avesto” asari tilida uchraydigan atoqli otlarning asosiy tiplarini joy va makon nomlari, antroponimlar, teonimlar, kosmonimlar, afsonaviy mifologik nomlar tashkil etishini aytib

⁹³ Primov A. “Avesto”dagi ba’zi kosmonimlar tadqiqi. “Avesto” – buyuk qomusiy asar. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2001. – B.30.

⁹⁴ Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. – Namangan, 2006. – B.75.

⁹⁵ Uluqov N. Ekzotik leksika. – Toshkent, 2021. – B.79.

o'tadi. Dissertatsiyaning "Tangri (iloh) nomlari" bo'limida ayrim teonimlarning lisoniy-ma'noviy xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Raufjon Mahmudov o'zining "O'zbek tilida Avestizmlar" manografiyasida o'zbek tilida ilohiyot bilan bog'liq avestizmlarni tahlil qiladi, ularni qo'llanish doirasi va semantik jihatdan: iloh tushunchasini umumlashtirib ifodalovchi va iloh tushunchasini xususiylashtirib ifodalovchi nomlarga ajratadi. Asarda Tangri, Xudo, but teonimlari iloh tushunchasini umumlashtirib ifodalovchi nomlar sifatida tahlil qilinsa, iloh nomlarini xususiylashtirib ifodalovchi teonimlar sifatida Ahura Mazda ilohi bilan bir qatorda Ahriman devini ham kiritib o'tadi: ...xususiy iloh nomlaridan yana biri *Ahriman* bo'lib, ayrim hollarda *ahroman* shaklida ham qo'llaniladi⁹⁶.

Ahriman *Angramaynyu* tarzida kelgan, pahlaviy va forsiyda, yuqorida ta'kidlanganidek, *Ahriman* ("i" si qisqa) yoki *Ahriman* ("i"si cho'ziq) ko'rinishini olgan hamda "*urushqoq va dus hman tangri*" ma'nosini anglatgan⁹⁷. Ba'zi tadqiqotlarda esa Ahriman yovuz ruh sifatida tilga olinadi: ezgulik ilohi Ahura Mazda va yovuzlik ruhi Axriman⁹⁸... Biroq Ahriman "Avesto" izohlarida dev sifatida keltiriladi. Ahriman "Avesto"da "Angar Maynyu". Pahlaviy va fors tillarida "Ahriman", "Ahriyoman", "Ahriman". Ma'nosi – jang va dushmanlik olami. "Yangi Avesto"da va mazdaparastlar dinida Ahriman dushman devlar jodular va parilarning sardori⁹⁹. Bizningcha, Ahriman obrazining "Avesto" izohlarida dev sifatida talqin qilingani uning mifonimga kiritishimiz uchun asos bo'la oladi. Sababi, Ajdar va Devlar insonlar tasavvurida salbiy ma'no kasb etib, insoniyatga zarar yetkazuvchi maxluq sanaladi. Shunday ekan, bunday tushunchalarga teonim emas, mifonim sifatida qarash lozim¹⁰⁰.

"Avesto" asaridagi onomastik birliklarning salmoqli qismini teonimlar tashkil qiladi. Quyida "Avesto" asarida qo'llaniluvchi teonimlarning lisoniy-ma'noviy xususiyatlarini keltirib o'tamiz:

Ama – kuch-qudrat va bahodirlik ilohi.

Amurdod – "Avesto"da "Amirmitota", pahlaviyda "Amurdod, forsiyda "Amurdod" yo "Murdod". Ma'nosi "umrboqiy", "abadiyat". Gohlarda Ahura Mazda ilohlaridan, "Yangi Avesto"da iloha Amshosipandlardan biri.

Andarvay – "Avesto"da "antarivayu", yo "vayu". Pahlaviy va forsiyda "andarvay" yo "darv" yo "voy". Ma'nosi – havo. Andarvay – havo ilohi.

⁹⁶ Mahmudov R. O'zbek tilida avestizmlar. – Xiva, 2020. – B.74.

⁹⁷ Ko'rsatilgan asar. – B.75.

⁹⁸ Narbekov A. Dinshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2007. – B.67.

⁹⁹ Avesto. Tarixiy-adabiy yodgarlik. – Toshkent, 2001. – B.337.

¹⁰⁰ Primov A. O'zbek tili teonimlarini o'rganish masalalariga doir. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Samarqand, 2009. – B.59.

Ardivisura Anahita – Amudaryo xudosi. Ardivi (aynan, ehtimol “nam”, “bug”) hamisha “sura” sifatida (“qudratli”) va “Anahita” (“pokiza”) ismi bilan birga zikr etiladi.

Ardivisura Anahita – suvlar ilohasi.

Arshtod – “Avesto”da “Arshtod”, “Arshtiy”, pahlaviy va forsiyda “Arshtod”, “Ashtod”. Zardushtiy dinidagi faol ilohlardan biri. Arshtod – rostlik, to‘g‘rilik ma‘nolarini ifoda etadi va “jahonparvar”, “dunyoni kengaytiruvchi” kabi sifatlar bilan ta‘riflanadi.

Aryaman – pahlaviyda “aryoman”. Do‘stlik, qardoshlik va osudalik ilohi. Mazdaparastlik dinidagi eng buyuk ilohlardan biri.

Asha – taqdir va baxt ma‘budasi. Asha so‘zi (etimologiyasi – Arti, mazmuni – ezgu amallar uchun berilgan mukofot) Zardusht tomonidan to‘qilgan degan taxminlar bor.

Aviysrusryam – besh qismdan iborat bir kecha-kunduzning shomdan tun yarmigacha bo‘lgan mahalini asraguvchi iloh.

Avparatot – afzallik va ilg‘orlik ma‘nolarini ifoda etadi. Afzallik va zabardastlik ilohi.

Bahrom – “Avesto”da “Virisrag‘na”, pahlaviyda “Varahron”. Mazdaparastlik dinidagi muhim va buyuk ilohlardan. Urush va g‘oliblik ilohi.

Birijyah – xo‘rak danaklari ilohi bo‘lib, Nmanyah va Ushohin ilohlari bilan hamkoridir.

Bod – “Avesto”da “vot”, pahlaviyda “vot”. Bod – shamol ilohi. U odatda “qo‘rqmas”, “beparvo” sifatlari bilan keladi.

Dadar (diy) – yaratuvchi, xudovand Ahura Mazdaning sifati.

Dahyuma – mamlakatlar ilohi, “mamlakatlarga tegishli”.

Damuyish Upamana – Iloh Mehrning yor va hamkorlaridan bo‘lgan iloh. U odatda “kuchli”, “qo‘rqmas” sifatlari bilan ta‘riflanadi.

Daxyum – “Avesto”da “Dahyum”. Ma‘nosi – elat, o‘lka, kishvar. Uzoyariyning hamkorlaridan biri bo‘lib, elat va o‘lkalarni o‘z panohida saqlaydi.

Fradot Fshu – “mayda chorpolarini parvarish etguvchi” ma‘nosini anglatadi. Bu iloh Iloh Rapisviyning hamkorlaridan.

Fradot Vira – erkaklarga homiylik qiluvchi iloh. Ma‘nosi: “erlarni o‘stiruvchi”.

Fradot Vispam hujyoytiy – ma‘nosi : go‘zal tiriklikka vosita bo‘lguvchi, barcha hodisalarni asraguvchi. Xush-xurram tiriklik ilohi.

Frodot-Fshovo – mayda hayvonlarga homiylik qiluvchi iloh.

Givush Tashana – olamni yaratuvchi, borliqni bino qilgan ma‘nolarini anglatadi. “Yangi Avesto”da chorpolar va tuyalar ilohasi.

Go'shvarvan – avestoviy “givsh avrvana”. Ma'nosi mavjudot ruhi, olam ruhi, yo zamin ruhi. “Yangi Avesto”da hayvonlar ilohasi.

Irisi – mazdaparastlik dini ilohalaridan. Biroq bu ilohaning faoliyati to'g'risida hech narsa qat'iy ma'lum emas. Shunga qaramay, uning nomi Asha, Chista va boshqa ilohalar safida tilga olinishiga ko'ra uning ham iloh ekanligiga shubha yo'q.

Mazda – asl avestoviy shakli “Ahurah Mazdah”. Mazdaparastlik dinining Oliy Ilohi. Butun ezgulik va poklik olamini yaratgan qudrat. Ko'plab Sharq tillarida bu nom “Uhra Mazd”, “Hurmazd”, “Uramazd”, “Axuroy Mazd”, fors tilida “Ahura Mazda”, “Hurmuzd” shaklida qo'llanilgan. Ahura Sanskrit tilidagi “Asura” bo'lib, qadimgi hind asotirlarida bir guruh devlarning nomini ifodalagan. Sharq xalqlari afsona va asotirlariga tabdil bo'lgach, “Xudo”, “Yaratuvchi” ma'nosini kasb etgan. “Avesto”da Ahura “buyuk” va “sarvar” ma'nolarida qo'llaniladi.

Mehr – “Avesto”da “miysra”, pahlaviyda “miytr”. “Yangi Avesto”da farog'at va yorug'lik ilohi. U qadimgi Eron va Hind dinlaridagi eng buyuk ilohlardan biri hisoblangan.

Mitra – Quyosh ma'budi, unga e'tiqod bilan uzviy bog'liq shartnoma, axdnoma ilohi; o'ninchi yasht Mitraga bag'ishlangan.

Napam Apat yoki **Apam Napat** – suv xudosi. Bu tarkibning ma'nosi “suvlar nabirasi”dir.

Nmanyah – uy-joylarni asraguvchi iloh. Nmanyah “Avesto” matnlarida “uy” ma'nosini anglatadi.

Nora-sanha – Oliy iloh Ahura Mazdaning elchisi, go'zal qiyofalar (chehralar) ilohi.

Olam shahriyori – “Avesto”da “zashra vayrayah”, pahlaviyda “shahrivar”, forsiyda “shahriyovar”, “shahriyor”. Ma'nosi “umid dunyosi”, “armon shahriyori”, “umid olamining sultoni” yohud “armon shahri”. Olam Shahriyori Axura Mazdaning ota Xudosi hisoblanadi.

Oyvisrutrima – kunning to'rtinchi qismiga homiylik qiluvchi iloh.

Ozar (otash) – olov qo'riqlovchi iloh. Mazdaparastlar dinining eng buyuk ilohlaridan biri. “Avesto”da – “otar”, “otarsh”, Pahlaviyda – “otur”, “otaxsh”.

Porindiy – boylik va qut-baraka, fayz va farovonlik ma'nolarini ifodalovchi na'matlarni asraguvchi iloh.

Rapitvina – kunning ikkinchi qismi ilohi.

Rasastat – mazdaparastlik dini ilohlaridan biri. Bu lafzning ma'nosini “adolatlilik”, “juvonmardlik” ma'nolarida tavil qilganlar.

Rashn – “Avesto”da “rashnu”. Ma'nosi – parhezkorlik yohud porloqlik. Hakamlilik ilohi bo'lib, Mazdaparastlik dinida muhim o'rin tutgan.

Rom – “Avesto”da “Roma” yo “Roman”, manosi – orom-osudalik. Havo ilohining nomi.

Savanhi – hayvonlarga homiylik qilguvchi iloh.

Savaqa – pahlaviyda “so’g”. Bu shodlik, e’zoz va ilohiy ne’matni qo’riqlovchi ilohaning nomi. Iloha yashtlarda va “Vandidod”da “ezgu”, “ashavan”, “Mazda yaratgan” kabi sifatlar bilan qo’llaniladi.

Sipandmiynu – “Avesto”da “Spintamaynyu”. Ma’nosi – “Tafakkur olami”. “Yangi Avesto”da Oliy Iloh Ahuraning o’zi yohud zotining sifati, unvoni, maqomi. 306

Sipandormaz – “Avesto”da “Spinta Oramista” yohud “Sipandarmaz”. “Yangi Avesto”da zamin ilohasi.

Srahosha – itoatgo’ylik, intizom ilohi.

Surush – “Avesto”da “sravsha”, “sru” o’zagidan. Ma’nosi – tinglamoq, tinglash, itoatkorlik, ya’ni ilohiy amrlarni tinglamoq va ilohiy farmonlar va ahnomlarga itoat etmoq. Mazdaparastlik dinidagi eng buyuk ilohlardan biri bo’lib, itoatkorlik, parhezkorlik va halollik ramzidir.

Tishtar – “Avesto”da “Tayshtryah”, pahlaviyda “Tishtar”, forsiyda “Yashtar”. Yulduz – ilohning nomi.

Ushohin – tun yarmidan quyosh chiqqunga qadar bo’lgan zamon ilohi.

Ushohina – kunning beshinchi qismiga homiylik qiluvchi iloh.

Uzoyariyn – besh qismdan iborat kecha-kunduzning asrdan quyosh botgunga qadar bo’lgan qismini o’z panohiga olgan iloh.

Uzoyirina – kunning uchinchi qismiga homiylik qiluvchi iloh.

Vartragna – urush va g’olibiyat ilohi.

Vayshaptasa – oyning yigirma birinchi kunidan oyning yigirma beshinchi kunigacha bo’lgan qismining nomi, shuningdek, shu kunlarni himoya qiluvchi iloh.

Vyasya – urug’-nasl va qishloq ilohi. Tarjimasi “qishloq urug’iga tegishli”.

Xurdod – “Avesto”da “Havravatot”, pahlaviyda “Xurdod” yo “Xurdot”. “Komillik”, “to’g’rilik” ma’nolarini ifodalaydi. Gohlarda Ahura Mazda ilohlaridan biri.

Xurshid – “Avesto”da “Xvari xshayta”, ma’nosi “yorug’ doira”. Mashhur samoviy kurra – quyosh va iloh nomi. Xurshid “Avesto”da “abadiy”, “barhayot”, “rayumand”, “yurg’un o’tli” kabi sifatlar bilan qo’llaniladi.

Yayra Hushitiy – butun yil davomida olti gahanborni asraguvchi iloh. Bu iloh odamlarga yaxshi xonadonlar va oromgozlar baxsh etadi.

Zantum – “zantuv”, ya’ni nohiya va hududni o’z panohiga olgan iloh.

Zantuma – qabilalar ilohi.

Zarvona – pahlaviyda “zurvon”, forsiyda “zarvon”. “Zamon, zamona” ma'nolarini ifoda etadi. Shunday bir ilohning nomiki, unga “poyonsiz” sifati qo'shib ishlatiladi.

Zavr – mazdaparastlar dini ilohasi bo'lib, undan madad va imdod istaganlar.

Chista – pahlaviyda “farzang”. Ma'nosi – bilim, donish, ogohlik, farzonalik. Ilmu donish ilohasi.

Yuqorida to'plangan ma'lumotlar asosida xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, asarda oltmishdan ziyod teonimlar keltirilgan bo'lib, o'z navbatida ularning qo'llanilish davri “Avesto” davridan ham oldingi davrlarga borib taqaladi. “Avesto” asaridagi teonimlarni o'rganish, shubhasiz, o'zbek teonimikasi rivojlanishi uchun muhim manba vazifasini o'taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. – Toshkent: “Sharq”, 2001.
2. Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. – Namangan, 2006.
3. Mahmudov R. O'zbek tilida avestizmlar. – Xiva, 2020.
4. Narbekov A. Dinshunoslik asoslari. O'quv qo'llanmasi. – Toshkent, 2007.
5. Primov A. “Avesto”dagi ba'zi kosmonimlar tadqiqi. “Avesto” – buyuk qomusiy asar. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2001.
6. Tillayeva M. Xorazm onomastikasining shakllanishi va “Avesto”. – Toshkent, 2010.
7. Uluqov N. Ekzotik leksika. – Toshkent, 2021.
8. Primov A. O'zbek tili teonimlarini o'rganish masalalariga doir. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Samarqand, 2009.